

**ESKIZDAN TO TAYYOR ASARGACHA: RANGTASVIR JARAYONINING
FIKRLASH VA YARATISH BOSQICHLARI**

Robijonov Diyorbek

Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada rangtasvir san'atida intuitiv ifoda vositasida inson ruhiy holatining qanday namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Intuitsiya orqali yaratilgan asarlar ichki sezgi va fikrlash jarayonlarini vizual shaklga aylantiradi. Rassomning sezgi asosidagi yondashuvi tomoshabinni chuqur ruhiy tajriba sari yetaklaydi. Shuningdek, maqolada intuitiv ijodning ranglar, shakllar va kompozitsiyadagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar

Intuitsiya, rangtasvir, san'at, ong osti, ruhiy kechinma, ichki sezgi, obraz, tafakkur, hissiyot.

Abstract

This article analyzes how the human psyche is expressed through intuitive expression in the art of painting. Works created through intuition transform inner feelings and thought processes into visual form. The artist's intuitive approach leads the viewer to a deep spiritual experience. The article also highlights the role of intuitive creativity in colors, shapes, and composition.

Keywords

Intuition, painting, art, subconscious, spiritual experience, inner feeling, image, thought, emotion.

Аннотация

В статье анализируется, как человеческая психика выражается через интуитивное выражение в искусстве живописи. Произведения, созданные посредством интуиции, преобразуют внутренние чувства и мыслительные процессы в визуальную форму. Интуитивный подход художника ведёт зрителя к глубокому духовному опыту. В статье также подчёркивается роль интуитивного творчества в цвете, форме и композиции.

Ключевые слова

Интуиция, живопись, искусство, подсознание, духовный опыт, внутреннее чувство, образ, мысль, эмоция.

Kirish

Hozirgi davrdagi ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri - talabalarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularda mustahkam o'quv motivatsiyasini shakllantira oladigan yuksak malakali o'qituvchilarni tayyorlashdan iborat. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash masalasining ahamiyati O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim siyosatidagi asosiy yo'nalishlar bilan belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 noyabrdagi № 633-sonli "Madaniyat va san'at muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash hamda ularga tizimli davlat ko'magini kuchaytirish to'g'risida"gi qarorida madaniyat va san'at sohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlashning ahamiyati va ularning kasbiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimligi alohida ta'kidlangan [1, b. 1].

Tasviriy san'at sohasida, hususan rangtasvir mashg'ulotlarida ijodiy yondashuv katta ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchi va talabalarning shaxsiy individualligini namoyon etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, rangtasvir mashg'ulotlarida foydalaniladigan "Muvaffaqiyat qozonish" holati va "Rassom husnixati" usullari muhim ahamiyat kasb etadi [2, B.627]. Bu usullar nimani anglatadi?! Qisqacha izoh beradigan bo'lsak, "Muvaffaqiyat qozonish" ijobiy psixologik muhitni shakllantirib, talabalarning o'ziga ishonchi va yangi yutuqlarga intilishini rag'batlantirishga yordam beradi, "Rassom husnixati" esa nafaqat shaxsiy uslubni, balki bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy malakasi va ijodiy tafakkurini ham aks ettiradi.

Ushbu strategik hujjatlar ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik usullarni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi, bu esa bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish va ularning samarali kasbiy faoliyatga shayligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Masalan, rangtasvir mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik usullari [3, B.102].

"Muvaffaqiyat qozonish" holatini shakllantirish - tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarni ijodiy jarayonda o'zlarini ishonchli va rag'batlantirilgan holda his etishlariga yordam beradigan maxsus yaratilgan shart-sharoitlardir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: talabaning imkoniyatlariga mos vazifalarni tanlash, emotsional qo'llabquvvatlash, individual yondashuv [4, B.14], topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish va ijodiy jarayonning o'ziga alohida ahamiyat qaratish. "Muvaffaqiyat qozonish" holatini shakllantirish uchun talabalar bajara oladigan vazifalarni taklif qilish, erkin tanlov imkonini yaratish, kreativ fikrlashni qo'llabquvvatlash, talabalarning yutuqlarini namoyish etish va ishonch muhitini shakllantirish muhim. Bunday yondashuv rangtasvir san'atiga qiziqishni kuchaytiradi, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijodiy rivojlanishiga yordam beradi [5, B.120].

“Rassom husnixati” - bu har bir talabaning noyob individual tasvirlash uslubi bo‘lib, u yozish texnikasida, koloristikada, kompozitsiya usullarida, mavzusida hamda emotsional ifodada aks etadi. Rassomlarning tasvirlash uslublarini o‘rganish bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega, chunki bu badiiy didni rivojlantirish, shaxsiy uslubni shakllantirish va kasbiy-metodik mahoratini oshirishga yordam beradi. “Rassom husnixati”ni rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi: jahon rangtasvir durdonalarini nusxalash, turli rangtasvir materiallari bilan tajribalar o‘tkazish, naturadan rasm chizish va erkin ijod qilish. Bu metodlar talabalarga badiiy yondashuvlarning xilmaxilligini tushunish va o‘z shaxsiy individualligini ochib berishga ko‘maklashadi [6, B.627]. “Rassom husnixati” usuli bo‘yicha amaliy topshiriqlarni ko‘rib chiqaylik:



Rembrandt van Reyn.

“Qizil kiymli inson portreti”
1654 y. 1952 y.



Anri Matiss

“Ispaniyalik ayol” 1909 y.



Rahim Ahmedov

“Cho‘pon bola”

1-rasm. Taniqli rassomlarning portret ishlash uslublari.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun ham nazariy, ham tajribaviy usullar qo‘llanildi. Nazariy tahlil pedagogika, ijodiy psixologiya va tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni o‘rganishni o‘z ichiga oldi. Bu asosiy tushunchalarni aniqlash imkoniyatini yaratdi,

San‘at insonning ruhiy ichki olami bilan tashqi olam o‘rtasidagi ko‘prikdir. Rangtasvir san‘atida esa bu ko‘prik ko‘pincha og‘zaki so‘zsiz, balki ranglar, chiziqlar va shakllar vositasida quriladi. Ayniqsa, intuitiv ifoda – bu rassom sezgan, ammo hali to‘liq anglab yetmagan fikr va hissiyotlarning vizual in‘ikosi bo‘lib xizmat qiladi. Inson aqli anglay olmasdan ilgariroq yurak sezadi degan fikr bejiz emas.

Intuitsiya va ijodiy jarayon

Intuitsiya inson tafakkurining eng chuqur, ong osti darajasida ishlaydigan qismidir. Bu jarayon ko‘pincha tushunarsiz va tahlil qilib bo‘lmas darajada nozik bo‘ladi. Rassomlar o‘z asarlarini yaratishda ko‘pincha ongli qarorlarga emas, aynan ichki sezgilarga tayanishadi. Bu holat, ayniqsa abstrakt san‘atda yaqqol namoyon

bo'lad. Misol uchun, Vassiliy Kandinskiy yoki Mark Rotkolar ijodida ranglar intuitiv tarzda tanlanadi va ularning joylashuvi oldindan o'ylab topilmagan bo'lishi mumkin.

Ranglar va shakllar orqali sezgi ifodasi

Rang tasvir san'atida intuitiv ifoda asosan ranglar orqali amalga oshiriladi. Har bir rangning ruhiy va psixologik ta'siri mavjud. Masalan, moviy tinchlik va chuqur o'ylarni uyg'otsa, qizil energiya va emotsional portlashni bildiradi. Intuitiv yondashuvda rassom ranglarni muvozanat emas, balki ichki kechinmalar asosida tanlaydi. Natijada, asarda sirli va g'ayrioddiy ruhiy holat aks etadi.

Ruhiy bog'lanish va tomoshabin ta'siri

Tomoshabin intuitiv asar bilan to'qnash kelganida uni tushunishga urinadi, lekin ko'pincha hissiyotlar orqali sezadi. Bu sezgi asarning ichki energiyasi bilan bog'liq bo'lib, u rasmning tashqi go'zalligidan emas, balki ichki ruhiy holatidan kelib chiqadi.

Rassom bilan tomoshabin o'rtasida ko'rinmas ruhiy bog'lanish vujudga keladi.

Rangtasvir va terapevtik kuch

Intuitiv ifoda faqat tomoshabin uchun emas, rassom uchun ham davolovchi kuchga ega. Ichki kechinmalarni qog'ozga yoki tuvalga tushurish jarayoni insonni ruhiy tozalanishga olib keladi. Bugungi kunda art-terapiya usullari aynan intuitiv san'at tamoyillariga asoslanadi. Bu holat san'atning nafaqat estetik, balki psixologik ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Xulosa: Rangtasvir san'atida intuitiv ifoda – bu faqat shakl yoki ranglar o'yini emas, balki insonning ichki dunyosiga sayohatdir. Rassom o'z sezgilari orqali tasvir yaratadi, tomoshabin esa o'z ong ostidagi kechinmalar bilan bu asarni anglashga harakat qiladi. Bu o'zaro bog'lanish – san'atning eng go'zal va chuqur qatlamlaridan biridir. Intuitsiyaga asoslangan ijod insonni anglashga emas, his etishga chorlaydi – bu esa san'atning chinakam sehrli tomonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kandinskiy V. – “Ranglar va tovushlar uyg'unligi”, Moskva, 1912.
2. Carl Gustav Jung – “Inson va uning ramzlari”, London, 1964.
3. Маргарет Ливингстон – “San'at va inson miyasi”, 2002.
4. Arnheim R. – “Art and Visual Perception”, University of California Press, 1974.
5. Xusnutdinova N. – “Rassom psixologiyasi”, Toshkent, 2017.
6. Qosimova D. – “Zamonaviy tasviriy san'atda intuitiv yondashuv”, “San'at” jurnali, 2022.